



ICHKI ISHLAR ORGANI XODIMLARINI IJTIMOYIY-HUQUQIY HIMOYA QILISHDA XALQARO HUJJATLARNING AHAMIYATI

Allambergenov Saparbay Dauletbayevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti, yuridik

fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15050650>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Mart 2025 yil

Ma'qullandi: 15-Mart 2025 yil

Nashr qilindi: 19-Mart 2025 yil

KEYWORDS

«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt», «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt», «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi», «Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonun».

ABSTRACT

Ushbu maqolada inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari sohadagi xalqaro va milliy qonun hujjatlari nazariy-huquqiy jihatdan tahlil etilib, mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash, shu jumladan, ichki ishlar organi xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyasi kafolatlari haqida fikrlar ilgari surilgan.

Ma'lumki, qadimdan hozirgi kunga qadar o'z dolzarbligi bilan alohida ajralib turadigan "Inson va uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari" bo'yicha qator davlatlarning soha olimlari, huquqni qo'llash subyektlari hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan nazariy, ilmiy-amaliy, qiyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va xalqaro siyosiy jihatdan tadqiq etib kelinmoqda.

Bu sohada dastlab dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan va XX asrning eng muhim hujjatlaridan biri bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»dir [1].

Mazkur hujjat dunyoning deyarli barcha davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan bo'lib, turli siyosiy tizimlarga ega bo'lgan davlatlarda inson huquqlarini bir xilda tushunish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi, shuningdek, dunyoda inson huquqlari sohasida xalqaro standartlashtirishga huquqiy asos soldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu hujjat loyihasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi qo'yidagi omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan:

birinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatini belgilovchi Nizom loyihasini (1943-1945 yillar) ishlab chiqish jarayonida butun dunyoda "Inson va uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari" bilan bog'liq xalqaro hujjat (deklaratsiya) ishlab chiqish zarurligi paydo bo'lishidir. Xususan, ushbu davrlarda aksariyat davlatlarda inson va uning huquqlarini mensimaslik va uni poymol qilinishi, sodir bo'layotgan jirkanch vahshiyona ishlarning avj olishi, insonlarning so'z va e'tiqod erkinligiga qarshi yovuz xatti-harakatlar

sodir etilishi, qiynoqlar, qo'rquv va muhtojliklarning keskin ko'payib ketishi, ayirmachilik, xalqlar va davlatlar o'rtasida o'zaro urushning ortib borishi natijasida butun dunyo davlatlari tomonidan bajarishga intiladigan ayni Deklaratsiyani ishlab chiqishni talab etgan edi;

ikkinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatini belgilovchi Nizom loyihasida "Inson huquqlarini himoya qilish" kabi qoidalar mavjud emasligi, unda faqatgina "Inson huquqlariga hurmatni rag'batlantirish va rivojlantirish" qoidalari bilan chegaralangan. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushi davrida sodir bo'lgan vahshiyliklarga xalqaro hamjamiyatning munosabati, ya'ni, dunyoning yarmi vayronaga aylangani, millionlab odamlar halok bo'lgani, insoniyat hayoti izdan chiqqanligi va kelgusida bunday dahshatli harakatlarning takrorlanishiga hech qachon yo'l qo'ymaslik uchun xalqaro majburiyatlarni belgilab beruvchi Deklaratsiya ishlab chiqilishi zarur bo'lgan.

Shu tariqa tarixda birinchi marta inson huquqlari bo'yicha qoidalar umumlashtirilib, 30 ta moddadan iborat yagona xalqaro hujjat shakliga keltirilgan. Jumladan, 3 ta moddada – inson erkinligi va tengligining asosiy prinsiplari, 21 ta moddada – fuqarolik va siyosiy huquqlar, 6 ta moddada – ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar hamda 1 ta moddada – shaxsning majburiyatlariga doir xalqaro qoidalar ishlab chiqilgan [2].

Insoniyat tarixida dastlab Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» inson huquqlari bo'yicha xalqaro standart qoidalari va prinsiplarini belgilab berganligi uchun dunyodagi deyarli aksariyat davlatlarning huquqshunos olimlari "Universallashtirilgan xalqaro hujjat" sifatida e'tirof etadi.

Shu tariqa aksariyat huquqiy demokratik davlatlar tomonidan ushbu deklaratsiyada belgilangan inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni hurmat qilishi va unga amal qilish majburiyatini belgilab beruvchi xalqaro hujjat sifatida maydonga chiqdi.

Deklaratsiyada dunyoda yashayotgan har bir insonning, u qaerda tug'ilgani, yashayotgani, qaysi millatga mansubligi, qanday tilda so'zlashishi, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi belgilangan.

Unga ko'ra, «Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi belgilangan.

Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat'i nazar biror-bir ayirmachilik bo'lmasligi kerak» (Deklaratsiya 2-modda) degan ustuvor qoidalar belgilangan.

«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da belgilangan qoidalar va prinsiplar dunyodagi aksariyat mamlakatlarning Asosiy qonunlaridan joy oldi va ularning inson huquqlari va erkinliklari bilan bog'liq milliy qonun hujjatlarini ishlab chiqishda o'z ta'sirini o'tkazdi.

«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» o'z navbatida aksariyat davlatlar tomonidan bajarish majburiyatini yuklovchi xalqaro pakt va konversiyalarni hamda xartiya va boshqa shartnomalar qabul qilinishiga huquqiy zamin yaratdi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1966-yil 16-dekabrda «Fuqarolik va siyosiy huquqlar

to'g'risida»gi xalqaro pakt [3] hamda «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro paktning [4] qabul qilinishini qayd etishimiz mumkin.

Ushbu xalqaro paktlar «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da belgilangan qoidalar va prinsiplarni yanada aniqlashtirish imkonini yaratdi. Shuningdek, Deklaratsiyadan yanada farqli jihati ularning majburiy xarakterga egaligidir.

Xususan, «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro paktning 1-moddasida «Barcha xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilash huqukiga egadir. Ushbu huquq asosida ular o'z siyosiy maqomlarini erkin belgilaydilar va o'z iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishlarini erkin ta'minlaydilar. Barcha xalqlar o'z maqsadlariga erishish uchun o'zaro manfaatdorlik printsipiga asoslangan xalqaro iqtisodiy hamkorlik va xalqaro huquqdan kelib chiqadigan biron-bir majburiyatga ziyon yetkazmasdan o'z tabiiy boyliklari va resurslarini erkin holda tasarruf etishi mumkin. Hech bir xalq hech bir holatda o'ziga tegishli tirikchilik vositalaridan mahrum etilmasligi kerak. Ushbu Paktida ishtirok etuvchi barcha davlatlar, shu jumladan o'zini o'zi boshqara olmaydigan va vasiylikka olingan hududlarni boshqarish uchun javobgar bo'lgan davlatlar ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi qoidalariga muvofiq, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirishni rag'batlantirishi hamda bu huquqni hurmat qilishi lozim» degan xalqaro qoidalar belgilangan.

Mazkur paktlarni dunyoning aksariyat davlatlari ratifikatsiya qilgan bo'lib, unda belgilangan inson huquqlari va erkinliklariga oid qoidalar va prinsiplarni bajarishga majburdir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro pakti va uning ikkita qo'shimcha protokoli hamda «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro pakti «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» bilan birga «Inson huquqlari to'g'risida»gi xalqaro billni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlab yillaridanoq Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ni ratifikatsiya etdi.

Zero, davlat mustaqilligining dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi o'z oldiga bosh maqsad etib – huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, mamlakatda inson va uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini oliy qoida va printsip sifatida tan olinishi hamda ichki va tashqi siyosatda eng ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan edi.

Mamlakatimizda «Inson qadri uchun» degan ezgu g'oyani to'liq ro'yobga chiqarish, inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, davlat organlari faoliyatiga tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash, shuningdek, jamiyat va har bir fuqaro hayotiga ularni tatbiq etish Yangi O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatida markaziy o'rinni egallab kelmoqda [5].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»da belgilangan ustuvor qoidalar va prinsiplarni mamlakat Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida izchillik bilan tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Deklaratsiyada

belgilangan ustuvor qoidalar va printsiplar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'z aksini topgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, Konstitutsiyada:

- "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar (2-modda)";

- "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi (4-modda)";

- "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi (13-modda);

- "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo'lishi shart (19-modda).

Ushbu konstitutsiyaviy qoidalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining «Inson huquqlari to'g'risida»gi xalqaro bildda belgilangan ustuvor qoidalar va printsiplarni o'zida mujassamlashtirgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bundan tashqari, birgina O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonunida [6] ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va printsiplarida «fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish» (2, 4, 5-modda), shuningdek, «Ichki ishlar organlaridagi xizmatga fuqarolarni qabul qilish, lavozimga tayinlash, ularning xizmatda ko'tarilishi va boshqa lavozimga o'tishi fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar amalga oshiriladi» (25-modda) deb belgilangan qoidalar mamlakatimizda hamda ichki ishlar organlari faoliyatida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ustuvorligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni [7] qabul qilingan. Mazkur Farmon bilan, «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasi» hamda «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlangan.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda [8].

O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasida zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishga qaratilgan Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiyasida belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilayotgani uning xalqaro maydondagi obro'si

yanada mustahkamlanishiga hamda mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zosi hisoblanadi.

Inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni amalga oshirish, ayniqsa ayollar, bolalar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga konstitutsiyaviy maqom berildi. Shuningdek, xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, qiynoqqa solishning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmning qonuniy asoslarini shakllantirish, majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi PQ-46-son «O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori qabul qilingan [9]. Mazkur qaror bilan, «O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturi» hamda «O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi» tasdiqlandi.

Ushbu qaror asosida davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonlik darajasini oshirish va baholash tartibi o'rnatildi. Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz huzurida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari xodimlari uchun inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilish sohasida kadrlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari tashkil qilindi.

Inson huquqlari sohasida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, shuningdek, ushbu yo'nalishda fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida «Inson huquqlari» (yuridik fanlar, sotsiologiya fanlari) ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti tashkil qilindi [10].

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari tomonidan aholi o'rtasida umuminsoniy qadriyatlar, inson huquqlarini hurmat qilish va unga rioya qilishni ommalashtirish, shuningdek, fuqarolarning huquqiy axborotdan foydalanish tartiblariga oid targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturining qabul qilinishi mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi ta'limni yanada rivojlantirishga, aholining inson huquqlari sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirishga, shuningdek, davlat xizmatchilarining inson huquqlari va gender tenglik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2023-yil 19-sentyabr kuni Nyu-York shahrida o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida Tashkilot Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan umumiy munozaralar doirasida uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda avvalo, barqaror rivojlanish sohasidagi milliy vazifalar va maqsadlarni ro'yobga chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorligini yanada kengaytirish istiqbollariga oid masalalar ko'rib chiqildi. Shuningdek, so'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik misli ko'rilmagan yuksak darajaga chiqqanligi mamnuniyat bilan qayd etildi.

Hamkorlikda qariyb 140 ta dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligi, O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 6 ta rezolyutsiyasi qabul qilinganligi, Orolbo'yi mintaqasi ahosilini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun maxsus Trast-fondi faoliyat yuritayotganligi alohida ta'kidlandi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining bir qator nufuzli tuzilmalariga saylandi va ularning ishida faol ishtirok etib kelmoqda. Hamkorlikda global kun tartibiga oid, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, turizmni rivojlantirish, kambag'allikka va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha yirik xalqaro tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

Bosh kotibi Antoniu Guterrish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Bosh Assambleyaning 78-sessiyasidagi nutqini yuksak baholab, mamlakatimizda inson huquqlari sohasida qabul qilingan dasturni qo'llab-quvvatlashini, davlatimiz rahbari dolzarb global va mintaqaviy muammolarga yechim topish borasida ilgari surgan tashabbus va takliflari muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Shu bilan birga, Bosh kotib yangi «O'zbekiston – 2030» islohotlar strategiyasiga kiritilgan maqsad va vaziflarning ko'lamdorligini, ular barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to'liq hamohangligini alohida qayd etdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning barcha institutlari ushbu dasturiy hujjatni amalga oshirishga ko'maklashishga tayyorligini bildirdi.

Muzokaralar yakunida, O'zbekiston bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'rtasidagi keng ko'lamlı sheriklikni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqishga kelishib olindi [11].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» ham axloqiy, ham huquqiy va ham siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini doimiy ravishda himoya qilish va bu sohada faoliyatlarni yanada takomillashtirish uchun katta ahamiyatga ega xalqaro hujjatdir. Chunonchi, ushbu xalqaro hujjat qabul qilinganligiga 75-yil ortga nazar solsak, 1948-yilda qabul qilingan Deklaratsiyaning sezilarli yutuqlari qo'lga kiritganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Deklaratsiya orqali millionlab odamlarning kundalik hayoti yaxshilandi, so'zlab bo'lmaydigan azob-uqubatlarning oldi olindi va adolatli dunyoning poydevori qo'yildi. Deklaratsiyaning vaqt sinovidan o'tganligi, tenglik, adolat va inson qadr-qimmatining kafolatlovchi normalari uning umumbashariy tabiatidan dalolat beradi.

Muxtasar aytganda, yuqorida qayd etilgan xalqaro va milliy qonun hujjatlar o'z navbatida, mamlakatimizda inson huquqlari, shu jumladan, ichki ishlar organi xodimlarining qadr-qimmatini oshirish va ularni ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoya qilish hamda mavjud muammolarni hal etish uchun barcha ichki va tashqi imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz talab etiladi. Shundagina mamlakatimizda «Inson qadri uchun» degan ezgu g'oya bilan birga, «Ichki ishlar organi xodimlari qadr-qimmatini uchun» g'oyasi ro'yobga chiqishi, bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda inson huquqlari to'la qaror topgan davlatlar qatoridan joy oladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

“Militsiya xodimlari – oddiy odamlar, oddiy inson, lekin, har qaysi oddiy insonam militsiya bo'lolmaydi. Militsiya ham inson, katta niyat bilan va umid bilan yashayotgan inson, ularniyam bolachaqasi bor, ularning ham katta umidlari bor, ularning ham ezgu niyatlari bor, ular ham to'ylar qilmoqchi, ular ham bollarini boqmoqchi, ular ham nevaralarini baxtini ko'rmoqchi,

lekin, takror aytaman, ularning mehnatiga, ularning bugun qilayotgan ishlariga hammamiz yelkadosh bo'lishimiz kerak [12]".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights> – muroжаат қилинган сана - 10.01.2025.
2. BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights> – muroжаат қилинган сана - 10.01.2025.
3. <https://lex.uz/docs/2640479> – muroжаат қилинган сана - 10.01.2025.
4. <https://lex.uz/docs/2686000> – muroжаат қилинган сана - 10.01.2025.
5. <https://lex.uz/uz/docs/6464217> – muroжаат қилинган сана - 10.01.2025.
6. <https://lex.uz/docs/3027843> – muroжаат қилинган сана - 10.01.2025.
7. <https://lex.uz/docs/4872355> – muroжаат қилинган сана - 10.01.2025.
8. <https://lex.uz/docs/4872355> – muroжаат қилинган сана - 10.01.2025.
9. <https://lex.uz/uz/docs/6378537> – muroжаат қилинган сана - 10.01.2025.
10. <https://lex.uz/uz/docs/6378537> – muroжаат қилинган сана - 10.01.2025.
11. <https://president.uz/uz/lists/view/6682> – muroжаат қилинган сана - 10.01.2025.
12. Izoh: O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ichki ishlar organlari xodimlari va ularning faoliyatlariga bergan konseptual fikrlari.

INNOVATIVE
ACADEMY